

MUDROQ MILLATNING OG'RIQLI HAQIQATLARI

(“Qo‘rqma” asari tahlili)

*Farg‘ona davlat universiteti
filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek
tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Axmadaliyeva Gulira‘no*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” asari orqali jamiyatning bugungi ma’naviy manzarasi ochib beriladi. Asarda muallif fidoyi, vatanparvar avlod va hozirgi beparvo, maqsadsiz yoshlar o‘rtasidagi keskin tafovutni ko‘rsatarkan, millatning ich-ichidan kemirayotgan mudroq holatni chuqur tasvirlaydi. Qoravoy, Telefonchi va Qiztaka obrazlarining fojiali taqdiri orqali beparvolik, mas’uliyatsizlik hamda ma’naviy tanazzulning qanchalik xavfli ekanligi yoritiladi. Maqolada ota-onalarning tarbiyadagi o‘rni, yoshlarning maqsadsizligi, ta’limning millat hayotidagi o‘rni kabi masalalar ham keng ochiladi. Asarda keltirilgan ramziy “jigar xastaligi” esa millat ongini zaharlayotgan ruhiy uyqu — befarqlikning timsoli sifatida izohlanadi. Muallif ta’kidlaganidek, millatning uyg‘onishi har bir insonning ichki mas’uliyati va orzusiga bog‘liq. Mazkur maqola o‘quvchini jamiyatdagi muammolar haqida chuqurroq o‘ylashga, ma’naviy uyg‘onish zarurligini his etishga undaydi hamda “Qo‘rqma” asarining asosiy ruhini — millatni uyg‘otishga bo‘lgan da’vatni ta’sirchan tarzda yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Qo‘rqma asari, Javlon Jovliyev, mudroq millat, ma’naviy uyg‘onish, yoshlar tarbiyasi, fidoyilik, maqsadsizlik, ramzlar, jigar xastaligi, ota-ona mas’uliyati, millatparvarlik, ma’naviy inqiroz, eshakqurt timsoli, ta’lim, uyg‘otuvchi asarlar, jamiyat og‘rig‘i.

KIRISH.

Asar 2020 yil nashr etilgan va u muallif ta’kidlaganidek: “..O‘tgan asrning 20-yillarida Germaniyada tahsil olgan va Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan shafqatsizlarcha qatl etilgan millat yigit-qizlarining nurli va yoniq xotirasiga” baxshida etilgan. Asarni o‘qir ekanman,

muallif tili bilan aytganda, yetmishvoylar bilan hozirgi kundagi talabalar holati zidlanganini va bu holat naqadar achinarli ekanligini his qildim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

"...Sen vatanning uchun hatto bir on, bir marta yig'lay olmay qariyotganingni bilish naqadar daxshat!"

Ular qanday ham fidoyi edilar, millat uchun qanchalar yonib kuygandilar. Ammo hozir-chi? Hozir ham shunday millatparvar talabalar mavjudmi? Yo'q, hozirgi kunda ko'proq "Qoravoylar", "Qiztakalar", "Telefonchilar", umrini mudrab o'tkazadiganlar bor.

"Qoravoy hamon oqarish uchun cho'milayotgan bo'lsa kerak, telefonchi esa o'yinning ikkinchi bosqichiga o'tgan, band. Qiztaka yana gunoh qilyapti eri o'lgan bir ayol bilan, biz ko'p uxlab tiniqib kuchga to'lib uyqudan turamiz, albatta, yana uxlash uchun!"

So'ngida nima bo'ldi ularning ahvoli qoravoy tanasi xunuklashib yuvinish xonasida o'limini kutib oldi, telefonchi qo'lidagi barmoq izi bilinmay ketganiga qaramay o'yin o'ynashda davom etdi-da oxir-oqibat ko'zidan ayrildi, qiztaka esa kasallik yuqtirib olgan, buning ustiga o'qishidan haydaldi, mana millatning taqdiri qanday bo'lishi shu uch obraz orqali ko'rsatib berilgan. Agarda millat uyg'onmasa, kelajak yorug'lik ko'rmaydi, qoloqlikda yashayveradi. Agar har bir inson millat uchun, jamiyat uchun xizmat qilishga bel bog'lasa ana shundagina taraqqiyot yuz beradi. Buni, eng avvalo, oiladan, ota-onaning farzandlariga berayotgan tarbiyasidan boshlash, "millat"ni uning qon qoniga singdirish kerak. Ammo hali o'zida shakllanmagan "millatparvarlik"ni qanday qilib bolasiga singdiradi bizning zamonimiz odamlari. Zero muallif ta'kidlaganidek "...yoshlarni pand-nasihat bilan emas, o'rnak bo'lib tarbiyalash kerakligini bizning otalar hali beri tushunmasa kerak. Bunga yuz yillar kerak, balki ming yil ketar!" Hozirgi davrda bolasiga kitob o'rniga telefon tutayotganlar, farzandining kelajagini pul bilan hal qilayotganlar yoxud "o'qimaganlar o'qiganlardan ko'ra boyroq bo'lishi" g'oyasini ilgari surayotganlar ana o'shalar millat ravnaqini kemirayotgan eshakqurt otalardir. Nega aynan eshakqurt? Chunki asarda eshakqurtlar ramziy obraz sifatida keltirilgan. Ular har qanday murdani kemiradigan, yaxshi-yomon sifatiga ajratmay ayamay yo'q qiladigan hasharot sifatida

tasvirlangan. Butun kuni g'aflatda yotadigan, uyg'onmaydigan millatning murdadan nima farqi bor? Va murdaning taqdiri bundan ortiq ne bo'lgay?...

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Darhaqiqat, aybni faqat otalarga ag'darsak ham bo'lmas. Shunday qo'rqqoq, mudroq o'g'il-qizni dunyoga keltirayotgan onalarga ham aytar so'zimiz bor: "Qo'rqqoqni tug'moqlik hali onalik emas, Mardlarning onasigina onadir faqat".

Nima degan edi Shayx Ali Tantoviy: "Ayollar jamiyatning yarmidir, qolgan yarmi ularning tarbiyalanuvchilaridir". Bu haqiqatni kim ham inkor eta olardi? Axir televizor qarshisida serial ko'rishdan bo'shamagan, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtini o'tkazayotgan, farzandiga vaqt ajratmagan onalar bor yurtidan biz qanday qilib millatparvar farzandlar chiqishini kutamiz? Beruniylar, buxoriylar, navoiylar, temurlar, ibn sino, boburlar, bundan tashqari, Muhammadsodiq Muhammadyusuflar, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va boshqa shu kabi millatni yorib chiqqan barcha alloma-yu avliyolarning hech biri ma'rifatsiz onaning qo'lida tarbiyalanmagan. Ularni buyuk qilgan buyuk onalari edi.

Asarda Fitrat domlaning fikri keltiriladi: "Ta'limi o'lgan millatning buguni ham kelajagi ham qullikdir". Sho'ro davridan ko'ra ayni paytda ta'lim sohasida muvaffaqiyatlar bisyor. Ko'plab shart sharoitlar imkoniyatlar yaratilgan. To'g'ri biz ta'limdagi islohotlar orqali qullikdan ozod bo'larmiz, ammo maqsadsizlik tufayli yana qullikka qaytib qolmasligimizga kim kafolat beradi? Biror talabadan "Sen kim uchun yoki nima uchun o'qiyapsan?" - deb so'rab ko'ring. Yoki nima uchun o'qiyotganini bilmaydi yoki shaxsiy manfaatni ko'zlab o'qiyotgan bo'ladi.

"...Biror katta maqsadsiz yashash naqadar og'ir dard".

Asardagi har bir qahramonning jigar xastaligi borligi yoki jigar kasalligidan vafot etishi ham ramziy ma'noga ega. Nega aynan jigar? Chunki jigar inson organizmida qonni yangilab hazm qilish jarayonini yaxshilaydi. Jigar qurisa butun tana a'zo ishdan chiqadi. Shuning uchun ham yaqinlarga nisbatan "jigarlar" so'zi ishlatiladi. Asarda esa jigar kasalligi inson o'limiga sabab bo'lar ekan, bu ramziy ma'noda mudrab borayotgan millatdir ya'ni hammadagi kuzatilayotgan hammani o'ldirayotgan mudroq, xastalik.

"Har hovlining uygʻotuvchisi bo'lishi kerak. Tonglab issiq joyidan qo'zg'atishi kerak rizq uchun..." - deydi Javlon Jovliyev. O'sha uygʻotuvchi har kim bo'lishi mumkin: ustoz, ota-ona, do'st, yor, farzand, xoh siz, xoh biz. Muhimi bo'lsin, millatning bir uygʻotuvchisi bo'lsin, toki xalq rizqsiz, nasibasiz qolmasin, ma'naviy qashshoqlikka yuz tutmasin. Shu o'rinda Aziz Nesinning bir fikri yodimga tushdi: "Bir kun kelib men xalqim uchun bir xat yozib yuzidan o'pib ketaman: "Shunchalar shirin uxlab yotgan edingizki, uygʻotishga ko'zim qiymadi, - deyman". Afsuski, o'sha shirin uxlab yotgan millat bizmiz. Hamza Hakimzoda Niyoziy ta'kidlagan "taraqqiy vaqtida ko'p uxlama" degan o'zbek eli ham bizmiz. Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" asari shunday achchiq haqiqatlarni ochib beradi. Bu asarni millat uygʻotish uchun turtki bo'lgan vosita desak, mubolag'a bo'lmaydi. Toki uxlayotganlarni uygʻotish uygʻonganlarning vazifasi ekan, mudroq bosmasin bizni.

XULOSA. Fikrimni Javlon Jovliyevning so'ngi soʻz oʻrnida aytilgan iltijosi bilan yakunlamoqchiman: "... Shu millat, shu vatan uchun ham bir orzu oʻstiring qalblarda, bir oʻlmas maqsad yashasin shu tuproq uchun ham!"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jovliyev, J. Qo'rqma. — Toshkent: nashriyot, 2020.
2. Fitrat, A. Milliy tarbiya va boshqa asarlar. — Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Tantaviy, A. A. Nafis pand-nasihatlari va ibratli hikoyatlar. — Qohira: Al-Azhar nashriyoti.
4. Aziz Nesin. Tanlangan asarlar. — Istanbul: Nesin Vakfi, turli yillar.